

- Raqamli iqtisodiyotga o'tish mehnat bozorini tubdan o'zgartiradi: xayotning barcha sohalarida axborot texnologiyalarining kirib borishi bilan bir qatorda, ish beruvchilar nuqtai nazaridan raqamli ko'nikmalar juda muxim axamiyat kasb etmoqda.

- Elektron savdo - ishlab chiqarilgan mahsulotlarni elektron savdo platformalaridan foydalangan holda sotish.

- Kraudsorsing – ma'lum bir muammoni echishga ko'pchilikni jalb etish mumkin bo'lgan raqamli platformadan foydalanish, bu muammoni echishga mutaxassislarni jalb qilish uchun sarflanadigan mablag'lar tejalishiga va sheriklar doirasini kengaytirishga olib keladi, bunday loyihalarga crowdspace va researchgate platformalari misol bo'ladi. Shu munosabat bilan, ishlab chiqargan mahsulotlarini elektron savdo platformalaridan foydalangan holda sotish, kraudsorsing va hamkorlar mahsulotlarini bozorga olib kirishga ko'maklashish uchun raqamli platforma yaratish kabi yo'nalishlardan foydalanish eksport salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

“Raqamli O'zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Toshkent sh. 2020 yil 5 oktyabr PF-6079 sonli.

Kambarova Sh.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida eksport salohiyatini oshirish uchun raqamlashtirishning tutgan o'rni. Axborot kommunikatsiyalar: tarmoqlar, texnologiyalar, echimlar. Ilmiy-texnik jurnal. AK:TTE 3(63) 2022, 61 b.

RAQAMLI IQTISODIYOTNI YUKSALTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Z.T.Siddiqov, dotsent

S.N.Normurodov, assistent

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU

XXI asr “Axborot texnologiyalari” asri. Buning mazmuni shundaki, jamiyat hayoti va rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborotkommunikatsiya texnologiyalari muhim o'rin tutmoqda. Jamiyating barcha sohalarida jumladan: tibbiyot, iqtisodiyot, moliya, ta'lim, bank tizimi va hokazolarda axborot texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo'lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, yangi bir hodisa - raqamli iqtisodiyot paydo bo'ldi. Aqlli texnologiyalar ta'siri ostida odamlarning turmush tarzi o'zgarib boshladi, foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalar o'zgardi - turli jug'rofiy mintaqalar, faoliyat sohaları va boshqalardagi odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan axborot aloqalarining jadal o'sishi. Raqamli texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va

innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o'sib borayotgan qismidir. Raqamli iqtisodiyotga o'tishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima? Bu har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirish va shu orqali xalqning moddiy farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Raqamli iqtisodiyot vositasida istemolchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatiladi va boshqa bir qator qulayliklar yaratiladi. Bu vaqtingiz tig'iz paytda tushlikka yoki kechgi ovqatga buyurtma berish, uzoqdagi yaqiningizdan pul olish yoki pul uzatish, trans chegaraviy biznes hamkorlik, bozorga bormay istalgan buyumni onlayn harid qilish, vaqtni tejashda, qog'ozbozlikka chek qo'yishda, aniq hisoblashlarda, iqtisodiy va moliyaviy masalalarni yechishda, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda iqtisodiyot axborot texnologiyalaridan foydalanishda, eng muhimi shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22% ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi. "Raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalariga oid bilim, malaka va ko'nikmalarga axborotlashgan jamiyatning har bir a'zosi, shu jumladan iqtisodiyot yo'nalishining har bir mutaxassisi ega bo'lishi zarur. Axborot texnologiyalari birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U "xufiyona iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma'lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi", - deydi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Shuhrat Sodiqov.

Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi.

Xulosa o'rinida aytish mumkinki, Raqamli iqtisodiyotni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Global Internet tarmog'isiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Raqamli iqtisodiyot" va "Axborot texnologiyalari" tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»gi to'g'risida farmon.

2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education – M.: IITO YUNESKO, 2013.

Novak, P. The Growing Digital Divide: Implications for an Open Research Agenda. Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research. Ed. B. Kahin and E. Brynjolffson. Cambridge, MA: The MIT Press., 2000.

Measuring the Information Society (MIS). Executive Summary. ITU edition, 2015.

МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

З.К.Жумаева, PhD, доцент
Международный университет Осие (ОХУ)

В современных условиях «цифровая экономика» становится драйвером развития общества, поэтому так важно оценить ее влияние на экономическую безопасность страны и ее регионов как фактора конкурентоспособности и устойчивого социально-экономического развития.

Лидеры государств и отраслей уже осознали, что цифровая трансформация помогает стимулировать экономическое развитие и производительность. Быстрое развитие 5G и искусственного интеллекта (ИИ) сильно изменит нашу жизнь и мир вокруг нас. Скорость развития напрямую зависит от инвестиций в инфраструктуру информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и программное обеспечение. В национальных стратегиях всех стран 5G и ИИ стали приоритетными направлениями развития. Идет гонка высоких технологий в которой участвуют: США, Китай, Южная Корея, Япония и европейские страны. Каждая из стран продвигает свои стратегии и политику в области 5G и искусственного интеллекта с целью получения первыми стратегических преимуществ в этих областях и повышения конкурентоспособности в ключевых отраслях.

Цифровая экономика характеризуется быстрым ростом, активными инновациями и широким воздействием. В настоящее время более 170 стран реализовывают цифровые стратегии, и более 50 стран в мире выпустили стратегии ИИ. В таблице № 1 представлены программы цифровизации четырех стран.

США первыми предложили реализовать систематическую национальную стратегию 5G и в настоящее время проводят исследования и разработки в области 5G, коммерческого применения и обеспечения национальной безопасности. Американская инициатива по ИИ будет опираться на пять основных направлений развития ИИ, включая поощрение инвестиций, предоставление ресурсов, разработку стандартов, расширение прав и возможностей работников ИИ, поощрение международного сотрудничества.

В Национальной стратегии развития интернет-технологий Китай предложил активно проводить исследования и разработки в области 5G, разрабатывать стандарты и содействовать развитию отрасли в дополнение к созданию ведущей глобальной сети мобильной связи к 2025 году. Кроме того, Китай опубликовал свой План развития искусственного интеллекта следующего поколения, чтобы воспользоваться стратегическими возможностями ИИ и